

Akmeologik yondashuv - bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish omili sifatida.

Mamarajabov Botir Baxodir o'g'li
Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi, PhD.

Annotatsiya: Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarjimonlarini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni yoritilgan. Akmeologik yondashuvni bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish omili sifatida tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Akmeologik yondashuv, tamoyillar, gnoseologik komponentlar, etnolingvistik komponentlar, axborot texnologik komponent, psixologik komponent, **bilim, malaka, ko'nikmalar, qobiliyatlar**, yondashuvlari

Zamonaviy ta'lim muassasasi uchun akmeologik yondashuv bugungi kunda kelajakli va istiqbolli bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, yuqori marralarga erishishga ta'sir etish mumkin bo'lishi uchun sub'ektga kompleks tekshiruv o'tkazilishi va yaxlitligini qayta tiklashi, yetuklikka erishishga o'tishda, uning individ, shaxs va sub'ekt sifatida-faoliyat xarakteristikasi barcha o'zaro aloqadorliklar va vujudga keltiruvchi sabablar bilan birgalikda o'rganiladi. Bu ta'limdagi innovatsion yondashuvlardan biri bo'lib, bo'lajak tarjimon o'z, shaxsiy akmesini aniqlab olishi uchun unda o'sha tanlagan ixtisosligiga nisbatan kuchli undovchi motivlar, hayotda esa muvaffaqiyatlarga erishish motivi yoki yutuqlarga erishish ehtiyoji kuchli rivojlanadi. Bo'lajak tarjimon tayyorlashning ijtimoiy – pedagogik zarurati va talabalarning mavjud tayyorgarligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar bir qator muammolarni hal etishni taqozo etmoqda. Bo'lajak tarjimonlar tayyorlash pedagogik tizimini tubdan modernizatsiyasini amalga oshirish mazkur tizimini optimizatsiya qilishga imkon beruvchi yangi yondashuvlarni asoslamasdan amalga oshirilishi mumkin emas.

A. Derkach, V. Zazykin e'tiroficha, akmeologik yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlikni shakllantirishning ilmiy asosi sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining mazkur jarayon ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning yetuk shaxslari va faol sub'ektlaritarzida namoyon bo'lishlariga asoslanadi hamda

ularning sub'ekt va mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirishi va o'z-o'zini shakllantirishi uchun sharoit yaratadi [4]. Pedagogik ijodkorlikning rivojlanishi xilma-xil qobiliyatlarning aks etishi bilan bog'liqdir. V.G. Zazikinining fikricha, akmeologik yondashuvning vazifasi bo'lajak mutaxassisni tobora yuqori professional va shaxsiy darajaga o'tkazish jarayonini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha strategiya va taktikalarni ishlab chiqishdan iborat [2]. Kasbiy faoliyat, kasbiy mahorat, kasbiy faoliyatning muayyan turida o'zini o'zi ro'yobga chiqaradigan ilg'or rivojlanayotgan shaxs akmeologik yondashuvning jiddiy e'tiboridagi ob'ektdir. A.A. Derkachning fikriga ko'ra, akmeologik yondashuvning o'ziga xos jihatlari falsafa, shaxs psixologiyasida ishlab chiqilgan turli yondashuvlardan foydalanishdan iborat. Masalan, tizimli va amaliy yondashuvlar qoidalari bilan bir qatorda, turli mutaxassislarning, tarjimonlarning, yaratuvchanlik faoliyatini o'rganishda akmeologik yondashuv quyidagi tadqiqot strategiyalarini qamrab oladi: B.G. Ananov tomonidan asoslagan insonni o'rganishga yaxlit yondashuv; P.K. Anoxin tomonidan ishlab chiqilgan yangi muhitga chiqishda qidirilayotgan oxirgi natija tizim hosil qiluvchi omil bo'lgan funksional tizimlar nazariyasi; sinergetik yondashuv [4]. A.G. Zazikin va V.N. Maksimovalarning ta'kidlashicha, oliy o'quv muassasalari ta'limiga akmeologik yondashuv ta'lim jarayonining maqsadi va natijasi - bu o'qitishning har bir bosqichida yetuklikning integral sifat darajasiga erishish orqali amalga oshiriladigan mutaxassisning yaxlit rivojlanishidir va bu quyidagi psixologik-pedagogik sharoitlarda amalga oshirilganida ro'yobga chiqishi mumkin [5]: tarbiya jarayonini shaxsning o'z-o'zini barqaror rivojlantirishning hayot davri strategiyasini rivojlantirishga bo'ysunishi, chunki salohiyat - bu nafaqat tabiatdan berilgan narsalar, balki doimiy ravishda to'ldiriladigan bilimlar, mantiqiy xususiyatlar tizimidir; kasbiy ko'nikmalar va malakalarni tegishli kasbiy jihatdan muhim bo'lgan, tegishli ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlaydigan sifatlar bilan birgalikda parallel ravishda jadal rivojlantirish [4].

B.G. Ananov, A.A. Derkach, Z.F. Yesareva, V.G. Zazikin, N.V. Kuzmina, V.N. Maksimova, A.A. Rean, E.F. Ribalko, E.I. Stepanova, G.S. Suxobskaya va boshqalar kabi akmeologik yondashuv vakillari nuqtai nazarlarining xilma-xilligini umumlashtirib, biz bu yondashuvni bo'lajak tarjimonlarning kasbiy malakasini rivojlantirish jarayoniga qo'lladik. Shu tariqa biz tarjimonlar tayyorlash jarayonining mazmuniga yangilik kiritish, talabani shaxsan va kasbiy rivojlanishida cho'qqilarga erishish bilan bog'liq akmeologik g'oyalarni tayyorlashning yangi modellarida amalga oshirish uchun ilmiy-amaliy shart-sharoitlar yaratish dolzarb masala sanaladi. Avval ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda kasbiy tayyorgarlik muammosining faoliyatli jihatlarni ishlab chiqish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda, bu esa biz tadqiqotimizni o'z

ichiga olgan shaxs va faoliyat birligining muhim metodologik tamoyiliga to'liq mos kelmaydi. Bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda akmeologik yondashuvdan foydalanib, biz muammoni hal qilishning faoliyatli jihatiga qaratilgan mavjud ishlarga qo'shimcha ravishda kasbiy kompetentlikni *shaxsiy jihatiga* e'tiborni kuchaytirishga intilamiz.

Ma'lumki, yetuk shaxsning ilg'or rivojlanishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning umumiy muammosida uning shaxsiy-kasbiy professionalligi darajasigacha rivojlanishi alohida o'rin tutadi. Kasbiy rivojlanish muammosini o'rganish orqali biz, shuningdek, shaxs faoliyatda rivojlanishi, faoliyatning aksariyat turlari esa professional deb hisoblashga moyilmiz. Shu tariqa biz shaxsiy-kasbiy rivojlanishdagi barqaror aloqaga urg'u beramiz, biz uni tadqiqot ishimiz yo'nalishini belgilovchi vektor sifatida qabul qilamiz hamda professional va shaxsiy sohalardagi chambarchas o'zaro harakatlarni aks ettiruvchi tuzilma sifatida taqdim etamiz. Bir tomondan, mehnat sub'ekti shaxsining o'ziga xos xususiyatlari kasbiy faoliyat jarayoniga va natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, shaxsni rivojlantirish kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari ta'siri ostida sodir bo'ladi.

Bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini ishlab chiqishda biz uchun professionallik, professional, professionallikning akmeologik invariantlari toifalarning mohiyati haqidagi akmeologik tushunchalar boshlang'ich nuqtalar bo'ldi. Bu tushunchalarni ko'rib chiqishning zarurligi ularning akmeologik yondashuv vakillari tomonidan professionalizm yo'lidagi bosqichlardan biri sifatida qaraladigan kasbiy kompetentlik tushunchasi bilan yaqinligi bilan izohlanadi. Demak, professionallikni rivojlantirishning alohida jihatlari bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining asosiy qoidalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Professionalizm muammosiga yaxlit yondashuvni ma'qullagan holda akmeolog olimlar O.S. Anisimov, E.N. Bogdanov, V.V. Petrusinskiy, A.A. Rean, I.N. Semenov, S.Yu. Stepanov professionallikni ikki tomondan ko'rib chiqadilar. Birinchidan, mehnat sub'ektining kasbiy malakasi va kompetentligini, samarali kasbiy ko'nikma va ko'nikmalarning turlicha bo'lishini, kasbiy vazifalarni hal etishning zamonaviy usullariga egalkini nazarda tutuvchi faoliyatning professionalligi sifatida, bu faoliyatni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Ikkinchidan, shaxsning professionalligi, ilg'or rivojlanishga yo'naltirilgan professional muhim va shaxsiy ishchanlik fazilatlarini, kreativlik, motivatsion soha, qadriyatlar yo'nalganligi yuqori darajasidir. Demak, professional akmeologik yondashuv nuqtai nazaridan «... shaxs va faoliyatning professional yuqori ko'rsatkichlariga ega bo'lgan, doimiy ravishda o'zini o'zi rivojlantirishga, shaxsiy va kasbiy yutuqlarga yo'naltirilgan kasbiy faoliyat

sub'ekti» sifatida qaraladi [5]. Bu shuni anglatadiki, «professionallik» kategoriyasi mohiyatan professional faoliyat sub'ekting kasbiy yaroqliligini, uning yo'nalishini, kasbiy tayyorgarligini va ruhiy holatini hisobga oladi.

O'ziga xos fazilatlar muayyan faoliyat turiga yo'naltirilgan kasbiy malakalarning kichik tuzilmasining batafsilroq tavsifini ifodalaydi. «Inson-inson», «inson-jamoa» toifalar uchun (tarjimon kasbi ham shularga tegishli) ular sezuvchanlik; kommunikativlik; psixologik ta'sir ko'rsatish qobiliyati; ta'sir qilish, ishontirish, ilhomlantirish, bahslashish, tinglash malakasini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotimiz kontekstida akmeologik yondashuv bo'lajak tarjimonlarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorgarligining asosi bo'lib xizmat qiladi. Akmeologik yondashuv asosida tarjimonlik kasbiy faoliyatining intellektual, predmetli-amaliy, axborot-texnologik, motivatsion-ehtiyojli, emotsional va refleksiv-baholash sohalarida tarjimon faoliyatiga oid kasbiy ahamiyatga ega sifatlar tizimini ajratib ko'rsatildi.

Intellektual sohasiga oid bo'lajak tarjimonning kasbiy kompetentligining gnoseologik va etnolingvistik komponentlari verbal-mantiqiy qobiliyatlar (nutqiy-tafakkur javob berishning tezligi, taqdim etishning ritmi, talaffuz, to'g'ri intonatsiya qilish); bir tildan ikkinchi tilga, bir mavzudan ikkinchi mavzuga yoki bir uslubiy registrdan ikkinchiga tezkorlik bilan o'tish malaka va ko'nikmasi; ortiqcha va tayanch axborotni aniqlash malakasi; jamiyat hayotining turli jabhalarida xabardorlik kabi malaka va ko'nikmalarni qamrab oladi. Predmet-amaliy sohasiga oid bo'lajak tarjimonning kasbiy kompetentligining gnoseologik va etnolingvistik komponentlari nostandart tarjimaviy muvofiqlarni o'rnatish malakasi; o'z xulqini tegishli ravishda tartibga solish yo'li bilan tarjima qilinayotgan kommunikatlarning ishtimoiy mavqei va rollarini inobatga olish malaka va ko'nikmasi; sinonimik yoki funksional almashtirish yoki ta'rifiy tarjima yo'li bilan tillararo ekvivalentsizlikni yengish malakasi; tarjimaviy tez yozish yordamida tarjima qilinayotgan matning asosiy mazmunini semantik (ma'noli) yozish malakasi ; bir nechta fikrlar mazmunini yozmasdan, yetarli darajada aniq yodlash ko'nikmasi; notiq tomonidan "yozilgan matn bo'yicha" bayon etilayotgan nutqni, ya'ni kvaziog'zaki nutqni, tarjima qilish ko'nikmasi; bir nechta amallarni (o'qish va gapirish, eshitish va gapirish, eshitish va yozish va hokazo) parallel ravishda bajarish malakasi o'z ichiga oladi. Axborot--texnologik sohasiga oid bo'lajak tarjimonning kasbiy kompetentligining axborot -texnologik komponenti lug'atlar va ma'lumot beruvchi adabiyotlardan tezkorlik va chaparasta tarzda foydalanish malakasi; Internet Explorer manbalaridan foydalanish malakasi; elektron lug'atlar, elektron tarjima tizimlaridan foydalanish malakasi tarjimaga tayyorlanish, ya'ni axborotni yig'ish, malakasidan iborat. Emotsional sohasiga oid bo'lajak tarjimonning kasbiy kompetentligining psixologik komponenti

o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmasi; stressga chidamlilik, ya‘ni ko‘p to‘sqinliklar (naushnikdagi shovqin, gapirayotgan shaxsning nutqi noaniqligi, uni dialektli talaffuzi) sharoitida ishlash ko‘nikmasi; relaksatsiya qilish malakasi; ahloqiy me‘yorlarni tushunishni ko‘zda tutadi. Motivatsionno-iste‘mol qiluvchi sohasiga oid bo‘lajak tarjimonning kasbiy kompeteniligining psixologik komponenti tarjima faoliyatiga ehtiyoj; doimiy tarzda olg‘a yurishga ehtiyoj; qiziqishlarning ko‘pqirraligi va kengligi; innovatsion tarjima tajribasini o‘rganishga ehtiyoj; karerali (mansab pog‘onalari bo‘yicha) o‘sish motivi; mavjud malaka va ko‘nikmalarni takomillashtirish motivini jamlaydi. Refleksiv-baholovchi sohasiga oid bo‘lajak tarjimonning kasbiy kompeteniligining psixologik komponenti vaziyatga bevosita kirishgan holda o‘z harakatlarini ajratish, tahlil qilish va kasbiy vaziyatga muvofiqlashtirish ko‘nikmasi (hozirgi vaqtdagi o‘z faoliyatini refleksiya); qo‘lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish, bajarilgan faoliyatdagi mumkin bo‘lgan xatolar sabablarini aniqlash malakasi (refleksiyaning retrospektiv jihati); bajariladigan faoliyatni rejalashtirish, natijalarini taxmin qilish malakasi shzida ifodlaydi. Mazkur shakllantirilishi lozim bo‘lgan tarjimonning kasbiy muhim xislatlari bevosita faoliyat parametrlari (intellektual, fan-amaliy, axborot-texnologik sohalari) bilan tavsiflanadigan kasbiy muhim xislatlarga va shaxsiy-psixologik xususiyatlar (emotsional, motivatsion-ehtiyojli va refleksiv-baholash sohalari)ni belgilaydigan kasbiy muhim xislatlarga taqsimlanishni taklif etamiz. Ajratilgan xislatlarni bo‘lajak tarjimonning kasbiy kompeteniligining tarkibiy qismlari bilan solishtirib, biz gnoseologik va etnolingvistik tarkibiy komponentlarni - intellektual va fan-amaliy sohalarda ajratilgan malaka va ko‘nikmalar bilan; axborot-texnologik komponentni - axborot-texnologik sohaga bilan; psixologik komponentni - emotsional, motivatsion-ehtiyojli va refleksiv-baholash sohalari bilan bog‘ladik. Kasbiy mahorat jarayoni va kasbiy-shaxsiy yaxlitlikni rivojlantirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lajak tarjimonlarning shaxsiy kasbiy kompetentligini maqsadli yo‘naltirilganligida bo‘lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga akmeologik yondashuvini ko‘rib chiqish yo‘llaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Алексеева И.С. Профессиональный тренинг переводчика. — СПб.: Речь, 2001.- 135 с.
2. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. - JL: Изд-во ЛГУ, 1968. - 338 с.
3. Андреева Н.И. Формирование гендерной культуры в современном обществе: философско-культурологический анализ: автореферат дис. ...

доктора философских наук: 09.00.13 / Рост. гос. ун-т. - Ростов-на-Дону, 2005. - 43 с.;

4. Демчук Л. М.Формирование лингвокоммуникативной компетентности будущих переводчиков Дис. ... канд. пед. наук. - — Челябинск 2005.-165.

5.

Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала / А.А. Деркач. – М.: Изд-во Моск. психол.-соц. ин-та; Воронеж: Изд-во НПО "Модек", 2004 г. – 750 с.

6.Халеева, И.И. Подготовка переводчика как «вторичной языковой личности» (аудитивный аспект) // Тетради переводчика : науч.-теор. сб. - М., 1999. -Вып. № 24.